



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING O'QUV FANLARINI O'ZLASHTIRISHGA BO'LGAN QIZIQISHINI OSHIRISH YO'LLARI VA ILMIY ASOSLARI

Meretgeldieva Aygul Bekmiratovna

Ajinyoz nomidagi NDPI 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20393921>

ARTICLE INFO

Received: 20th May 2026

Accepted: 21st May 2026

Published: 26th May 2026

KEYWORDS

boshlang'ich ta'lim, o'quv motivatsiyasi, o'quv qiziqishi, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, innovatsion yondashuv, kompetensiyaviy ta'lim, "Bumerang" metodi, mustaqil fikrlash, matematika ta'limi, ona tili ta'limi, fanlararo integratsiya, ta'lim samaradorligi, bilish faolligi

ABSTRACT

Mazkur maqolada boshlang'ich sinif o'quvchilarining o'quv fanlarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini oshirishning pedagogik, psixologik hamda metodik asoslari tahlil qilingan. Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va innovatsion yondashuvlardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Xususan, matematika, ona tili hamda o'qish fanlarini o'qitishda o'quvchilarning bilishga oid faolligini rivojlantirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va fanlarga nisbatan barqaror qiziqishni hosil qilish masalalari ko'rib chiqilgan.

Respublikamizda jamiyat talablari, ta'lim paradigmasining o'zgarishi bilan birga o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalari va "Jismoniy sog'lom, ruhiy va aqliy rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" ustuvor masala sifatida belgilangan.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy tuzilmalar yaratilayotgan hozirgi kunda keng, chuqur bilimli va bilimlarni amalda qo'llay oladigan shaxslarga talab kuchayib bormoqda. Bilimli va ishbilarmon, ijtimoiy faol shaxs ijtimoiy hayotda, mehnatda o'z o'rnini topadi. Bunday faollik yuzaga kelishi uchun bilimli va harakatchan, milliy istiqloq g'oyasiga sodiq bo'lgan shaxsni shakllantirish kerak va avvalo har tomonlama rivojlangan, sog'lom fikr yuritadigan, dunyo yoshlari bilan har sohada raqobatbardosh, ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalash zarur.

Hozirgi kun ta'lim tizimini modernizatsiya qilish davr talabi bo'lib turgan bir sharoitda, ilmiy ma'lumot hajmining kundan-kunga shiddat bilan o'sib borishi, ayniqsa, umumta'lim maktabida ta'limning cheklanganligi, unda o'qitilayotgan fanlar mazmunini qisqartirish imkoniyatlarining kamligi ushbu jarayonni amalga oshirishni qiyinlashtirmoqda.

Ilmiy-didaktik, ilmiy-metodik izlanishlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish va ko'zlangan maqsadlarga erishishning samarali yo'llaridan biri ta'lim tizimiga zamonaviy innovatsion-pedagogik va modulli texnologiyalarni joriy etishdan iborat.

Davlat ta'lim standartlari (DTS), Malaka talablari (MTT) darajasida ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni egallashda ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tashkil etishda qo'llaniladigan quyidagi uch toifali pedagogik usullar muhim o'rin tutadi:

- 1) "An'anaviy usullar." Bunday pedagogik usullar ta'lim oluvchilarga bilimlarni "yetkazib berish" tamoyiliga;
- 2) "Noan'anaviy" yoki "Interfaol" usullar ta'lim oluvchilarning bilim olishida "jadallashtirish" tamoyiliga;
- 3) "Ilg'or yoki zamonaviy usullar." Bu usullar ta'lim jarayonini "jadallashtirish va samaradorligini oshirish" tamoyiliga asoslanadi.

Bugungi kun o'qituvchilari zamonaviy usullar haqida yetarli bilimga ega bo'lishi va kasbiy faoliyati jarayonida ulardan to'g'ri va o'rinli foydalana olishi talab etiladi. Sababi:

ta'lim oluvchilarni bilish jarayoniga qiziqtirishda;
ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlashda;
ongli bilim olishga va mustaqil ravishda o'z bilimlarini oshirib borishga o'rgatishda;
ilimga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishda;
mantiqiy fikrlashga o'rgatishda;
ta'lim samaradorligini oshirish va takomillashtirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarisiz oldindan kafolatlangan ta'lim maqsadlariga erishib bo'lmaydi.

Masalan, matematika fanini o'rganish jarayonida o'quvchilar turli formulalarni o'rganadi. Agar ular bu formulalarni ongli ravishda tushunib yetmasa (ongli tushunilgan tushuncha yoki formula uzoq vaqt yodda saqlanadi va kerakli paytda tez esga tushiriladi), masala va misollarni yechishda, yangi nazariy bilimlarni egallashda qiyinchiliklarga duch keladi.

Ayniqsa, matematika fanida bu ta'lim oluvchilarning shu fanni o'rganishga bo'lgan qiziqishini so'ndiradi. Bu kamchiliklarni bartaraf etishda ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlari yuqori. Shuning uchun har bir zamonaviy o'qituvchi kasbiy faoliyati jarayonida quyidagi omillarga asoslanishi talab etiladi:

ta'lim maqsadlariga erishishni Davlat ta'lim standartlari va malaka talablari darajasida kafolatlash;
ijodiy va izlanuvchan xarakterdagi masalalarni mustaqil hal qila olish;
har bir o'qituvchi o'zining ma'naviy va axloqiy salohiyatini, kasbiy faoliyatida tutgan o'rni va ahamiyatini anglab yetishi va shundan kelib chiqqan holda o'z ustida mustaqil ishlashi;
zamonaviy ta'lim-tarbiyaning ilg'or texnologiyalarini hamda ilg'or tajribalarni uzluksiz ravishda o'zlashtirib borishi;

fanlararo integratsiyani talab etadigan yangi murakkab kasbiy-pedagogik muammolarni hal etishga har tomonlama tayyor bo'lishi;
ta'lim oluvchi shaxsning har tomonlama rivojlanishini yetarli darajada o'rganish va pedagogik, psixologik va fiziologik jihatdan tahlil qila olish;
zamonaviy ta'lim tizimida kompleks o'zgarishlar qila olish va undagi ziddiyatlarni yengish va h.k.

Matematika fanini o'qitishni rivojlantirish Konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" da belgilangan vazifalar ijrosi bo'yicha ishlab chiqilgan.

Ma'lumki, matematika fani insonning aql-zakovatini o'stiradi, uning diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'zida qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, o'zidagi algoritmik

tarzdagi tartib-intizomni ta'minlaydi va eng muhimi, uning tafakkuri kengayadi. Matematika olamni, dunyoni bilishning asosi bo'lib, atrofimizdagi voqea va hodisalarning o'ziga xos qonuniyatlarini ochib berishda juda katta ahamiyatga ega, matematik bilimlarsiz ishlab chiqarish va ilm-fanning rivojlanishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham matematik madaniyat - umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Matematik ta'limga kompetensiyaviy yondashuv kasbiy, shaxsiy va jamiyatdagi kundalik hayotda uchraydigan vaziyatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan turli ko'rinishdagi ko'nikmalarni o'quvchilar tomonidan egallanishini nazarda tutadi. Shunday qilib, kompetensiyaviy yondashuvda matematik ta'limning asosini amaliy, tatbiqiy yo'nalishlarni kuchaytirishga qaratiladi. Bugungi kunda o'qituvchining ham, o'quvchining ham ta'lim jarayonining subyektiga aylanishi davr talabiga aylandi. Bunga erishishning eng maqbul yo'li zamonaviy ta'lim metodlarini bevosita va bilvosita ta'lim jarayoniga to'liq joriy etish hisoblanadi va bunda ta'limning zamonaviy usullari sanalgan interfaol metodlardan foydalaniladi.

“Interaktiv” so'zi inglizcha “inter” – “o'zaro,” “act” – “harakat qilish” so'zlaridan olingan bo'lib, **“birgalikda harakat qilish,”** degan ma'noni anglatadi. Demak, yangi innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar yordamida pedagoglarning ta'lim jarayonida o'quvchilar bilan hamkorlikdagi faoliyati orqaligina yuqorida qayd etilgan ta'lim maqsadlariga erishish mumkinligi kafolatlanadi. Shu asosda tayyorlangan pedagog kadrlar tomonidan umumta'lim maktablarida ta'lim jarayonini **innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar asosida tashkil etish:**

dars jarayonida ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy va izlanishga intilishlari uchun yetarli shart-sharoitlar yaratildi;

o'quvchilarning ongli kasb-hunar tanlashga bo'lgan intilishlarini rag'batlantiradi;

tabaqalashtirilgan holda, yakka tartibda ta'lim berish imkoniyatlarini kengaytiradi. Chunki, ongli ravishda kasbiylashuv darajasiga erishgan ta'lim oluvchida o'z bilimlarini yanada oshirishga moyillik yuqori bo'ladi;

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv fanlarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini oshirishning yo'llaridan biri metodlardir. Metodlarning turlari ko'p, quyidagi metod esa o'quvchilarning matematikaga bo'lgan qiziqishini oshiradi: **“Bumerang (Savollar almashinuvi)” metodi**

“Bumerang (Savollar almashinuvi)” metodi ta'lim oluvchilarning dars jarayonida, darsdan tashqari turli adabiyotlar va matnlar bilan ishlashini, o'rganganlarini xotirada saqlab qolishini, zarur hollarda fikrlarini erkin bayon qilishini, qisqa vaqt ichida ko'p bilimga ega bo'lish imkoniyatlarini oshiradi. Shuningdek, o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning ishini to'g'ri baholashda muhim o'rin tutadi. Bunda tarqatma materiallarni ta'lim oluvchilar tomonidan guruhli, yakka tartibda samarali o'zlashtirilishini, sinf xonasida tashkil etish suhbatning bahs-munozaraga aylanishini ta'minlash orqali ular faoliyatini nazorat qilish va barcha ta'lim oluvchilar faoliyatini to'g'ri baholash imkoniyatlarini oshiradi. Bu interfaol metoddan suhbat-munozara shaklidagi darslarda individual, juftlik, guruhli va jamoaviy shakllarda foydalanish mumkin. Bu metoddan foydalanish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Kichik guruhlar tuzilib, ushbu metoddan foydalanish qoidasi bilan o'quvchilar tanishtiriladi.
2. Har bir kichik guruhga mustaqil o'rganish uchun raqamlangan topshiriqlar tarqatiladi.
3. Har bir guruh a'zolari o'zlariga berilgan topshiriqni bajarish asosida o'quv materialini o'zlashtiradilar.

4. Kichik guruhlar qayta tashkil etiladi.
5. Yangidan tuzilgan kichik guruh a'zolari navbatma-navbat o'zlashtirgan ma'lumotlarni bir-birlariga aytib beradilar va shu orqali do'stlari tomonidan o'rganilgan ma'lumotlarni ham o'zlashtiradilar. Bunda o'qituvchi o'quvchilar tomonidan o'quv materialini qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlash uchun savol-javob asosida ichki nazorat o'tkazadi.
6. Kichik guruh a'zolari o'zlarining "dastlabki guruhlari" ga qaytadilar.
7. Kichik guruhlar tomonidan to'plangan ballarni hisoblab boruvchi "Guruh hisobchisi" tayinlanadi.
8. O'qituvchi savol-javob asosida ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqlaydi.
9. Savollarga berilgan javoblar asosida kichik guruhlar tomonidan to'plangan ballar umumlashtiriladi va kichik guruh a'zolari o'rtasida teng taqsimlanadi.

Ushbu metoddan foydalanish ta'lim oluvchilarga samarali ta'lim berishni ta'minlash bilan bir qatorda quyidagi tarbiyaviy xarakterdagi vazifalarni amalga oshirishga yordam beradi:

ta'lim oluvchilarda jamoa bo'lib ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi;

o'zaro muloqot madaniyatini rivojlantiradi;

o'zgaralar fikriga hurmat nuqtai nazaridan qarashga o'rgatadi;

faollikka o'rgatadi;

rahbarlik sifatlarini shakllantiradi;

ishga ijodiy yondashuv ruhini singdiradi;

har bir ta'lim oluvchining o'z ishi qiziqarli bo'lishiga qiziqishini oshiradi;

o'z-o'zini xolis baholash ko'nikma va malakasini oshiradi.

O'quvchiga tilni o'rgatish orqali shu til bo'yicha o'rganiladigan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi: nutqni tinglab tushunish, nutq, o'qish va yozish amaliyoti bo'yicha har bir sinfda talab etiladigan tajriba va ko'nikmalar me'yorini rivojlantirish, bunda o'quv va mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda erkin fikr almashish va fikr bayon eta olish, eshitilgan materialni anglash, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirishish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.

Adabiyot so'z san'ati, shu bois ona tilini puxta o'zlashtirmay turib, adabiyotning go'zalligi va qudratini anglab bo'lmaydi. Ona tili va o'qish darslarida amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy masala o'quvchida so'zga qiziqish va e'tibor hissini barqaror sur'atda o'stirib borish, ularga so'zning ahamiyati, turli matnlarda tutgan o'rnini tushuntirishdan iborat. Fanlararo aloqani tafakkurning rivojlanishiga qiyoslash mumkin. Fanlarni o'zaro bog'lab o'rganish, u yoki bu fan bo'yicha o'quvchida o'rganilayotgan voqea-hodisa haqida jonli fikr yuritish ko'nikmasini rivojlantiradi. Bu bilan o'quvchi voqea-hodisa haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. O'qituvchi ona tili va o'quv fanlarini boshqa fanlar bilan uzviy bog'lab o'qitib, yangi materialni bayon qilish, mustahkamlash jarayonida, shuningdek, takrorlash, umumlashtirish vaqtida u yoki bu mavzu bo'yicha o'zni bilan bog'laydi va o'quvchini mantiqiy, tahliliy fikrlashga undovchi turli mazmunga oid matnlardan foydalanadi. Bunday matnlardan foydalanish o'quvchini ijodiy fikrlashga, matnni tushunishga o'rgatadi hamda ularning bilimi va dunyoqarashining boyishiga xizmat qiladi.

Ona tilida o'rganilayotgan so'z va so'z shakllarini to'g'ri talaffuz qilish hamda yozish, so'zni grammatik jihatdan to'g'ri shakllantirish, so'zlarni o'rinli tanlash va sintaktik-stilistik jihatdan to'g'ri baholay olish, gap tuzish va nutq ohangini belgilashda adabiy til imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish talab etiladi.

Til o'rganishda uzluksiz ta'limning boshlang'ich va umumiy o'rta bosqichlarida til ta'limining lingvistik, lingvopsixologik, sotsiopsixologik, paralingvistik va eng muhimi, umumdidaktik va o'ziga xos metodik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yuzaga keltiriladigan nutqiy-kommunikativ, grammatik va umumtarbiyaviy vazifalar belgilanadi.

"Ona tili" nafaqat leksik va grammatik me'yorlarni o'rgatadigan, balki o'quvchi nutqiy faoliyatida ixtiyoriy mavzu, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunish, to'g'ri o'qish, orfoepik va orfografik me'yorlarni qo'llash salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan fan. O'quvchining mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashi uchun ona tili darslarida o'qib tushunishga alohida e'tibor qaratiladi. Ona tilini puxta o'zlashtirgan o'quvchi boshqa fanlarni ham qoniqarli o'zlashtiradi. O'qish savodxonligi mukammal bo'lgan o'quvchi boshqa fanlarda o'rganilayotgan matnlarni o'qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlaydi, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish qobiliyati rivojlanadi. Shuningdek, o'quvchining mantiqiy fikrlashi va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, PIRLS) talablariga mos keladigan matnlar bilan ishlashga mo'ljallangan amaliy topshiriqlarni matnlar mazmuniga moslashtirish o'qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biridir. Bunda matnni tushunish, tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va munosabat bildirish ko'nikmalarini shakllantirish nazarda tutiladi.

Ona tili fani o'quvchi shaxsida fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri va aniq bayon eta olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantirish; o'quvchida til qurilishiga oid o'zlashtiriladigan amaliy bilimlarni (fonetika (orfoepiya), leksika, so'z tarkibi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq usullari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirishdan iborat.

O'qish (umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflari o'quv rejasidagi adabiyot) fani og'zaki va izchil nutqni o'stirish, so'z boyligini oshirish, to'g'ri va tushunarli o'qishga o'rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyati hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. O'qish fanini o'qitish orqali o'quvchida to'g'ri, tez, ongli, ekspressiv o'qish ko'nikmalarini shakllantirish; o'qishga muhabbat uyg'otish, ularni oddiy kitobxondan chuqur fikrlaydigan, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish; o'qish orqali atrof-muhit, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, dunyoqarashini boyitish; axloqiy-estetik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash; nutq va tafakkurni o'stirish; fikrlashda elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish; o'quvchining tafakkurini rivojlantirish nazarda tutiladi. O'quv mashg'ulotlari oldiga qo'yilgan tarbiyaviy vazifaning muvaffaqiyatli hal etilishi darsda badiiy asar matni ustida ishlash bilangina bog'liq bo'lib qolmay, balki bolani o'rab turgan hayot, tabiatdagi o'zgarishlar, ekologik vaziyat, ijtimoiy foydali mehnat bilan ham o'zaro bog'liq bo'lishi lozim. O'quvchini o'qishga o'rgatishda hayotiy tajribalarga tayanib ish ko'riladi. O'quv mashg'ulotlari bolalarda nafosatga muhabbat uyg'otadigan, pokizalik tuyg'ularini oziqlantiradigan, his-tuyg'uni charxlaydigan, aqlni estetik didga o'stiradigan musiqa va tasviriy san'at fanlari bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerak. O'qish, musiqa va tasviriy san'at darslarini o'zaro bog'lab tashkil etish bolalarda badiiy asarlarni to'g'ri tushunish va qadrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi, o'quvchining shaxs sifatida ma'naviy qiyofasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv fanlarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini oshirish ta'lim samaradorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va innovatsion yondashuvlardan foydalanish o'quvchilarning bilishga bo'lgan ehtiyojini kuchaytiradi, mustaqil fikrlash hamda ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, fanlararo integratsiya va "Bumerang" kabi interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning darslarga qiziqishini oshirib, bilimlarni samarali o'zlashtirishga xizmat qiladi. Shu sababli boshlang'ich ta'limda ilg'or pedagogik yondashuvlarni keng joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M. Toshpulatova "Boshlang'ich sinflarda matematikadan darsdan tashqari mashg'ulotlar" - o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma Toshkent-2019
2. P.A. Мавлонов, М. Арабова, F. Салохитдинова "Педагогик технология" Т. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси. "Фан" нашриёти. 2008
3. M. Tojiyev, K. Mamadaliyev "Matematika o'qitish texnologiyalari va loyihalash" Toshkent – 2024
4. O.M.Jaborova, Z.A.Umarova, L.G.Babaxodjayeva. "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi". – Toshkent.: "Malik print co".2021
5. Arxiv.uz
6. Soff.uz

